

ISSN: 2181-1040  
DOI: 10.26739/2181-1040  
tadqiqot.uz/renaissance



# JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL  
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 5 |  
ISSUE 3**

**2024**

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 5, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
ТОМ 5, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE  
VOLUME 5, ISSUE 3



## Бош муҳаррир:

### МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

## Бош муҳаррир ўринбосари:

### ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо  
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

## Бош муҳаррир ўринбосари:

### ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

### МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,  
профессор (Ўзбекистон)

### ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий  
академияси академиги, санъатшунослик фанлари  
доктори, профессор (Ўзбекистон)

### МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари  
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

### ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

### МАХМУДОВА ГУЛИ ТИЛАБОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
қошидаги "Фалсафа" илмий марказ раҳбари,  
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

### ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий  
ва инновация ишлари бўйича проректори,  
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

### КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари  
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

### АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети  
профессори (Испания)

### ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги  
Ўзбекистон Миллий университети  
халқаро ишлар бўйича проректори,  
филология фанлари доктори,  
профессор (Ўзбекистон)

### КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,  
тарих фанлари доктори (АҚШ)

### ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети  
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

### ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети "Фалсафа" кафедраси  
мудир, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

### МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

### САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти  
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

### ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий  
университети доценти, педагогика фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

### ТОШОВ ХУРШИД ИЛХОМОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

### ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

### РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Главный редактор:

**МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА**

доктор философских наук, профессор  
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## Заместитель главного редактора:

**ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА**

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент  
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## Заместитель главного редактора:

**ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ**

доктор философских наук (PhD), Национальный  
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ**

Ректор Национального университета Узбекистана,  
профессор (Узбекистан)

**ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ**

Академия наук Узбекистана,  
академик Академии художеств Узбекистана,  
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

**МАРИАННА КАМП РУТЦ**

профессор Центра Евразийских исследований  
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

**ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ**

Профессор ISFT института,  
доктор политических наук (Узбекистан)

**МАХМУДОВА ГУЛИ ТИЛАБОВНА**

руководитель Научного центра «Философия» при  
Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо  
Улугбека, доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

**ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ**

проректор по научным исследованиям и инновациям  
Международной исламской академии Узбекистана,  
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

**КЛЭР РООСИЕН**

PhD доктор кафедры  
Славянских языков и литературы  
Йельского университета (США)

**АНТонио АЛОНСО МАРКОС**

профессор Университета  
CEU имени Сан Пабло (Испания)

**ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА**

проректор по международным связям  
Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,  
профессор (Узбекистан)

**КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ**

профессор Университета Хофстра,  
доктор исторических наук (США)

**ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ**

профессор кафедры религиоведения и культурологии  
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,  
доктор философских наук (Казахстан)

**ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА**

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского  
государственного университета, кандидат  
философских наук, профессор. (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ**

профессор Наманганского инженерно-технологического  
института, доктор философских наук (Узбекистан)

**САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА**

Навоийского государственного педагогического института,  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

**ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ**

доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)  
по педагогическим наукам (Узбекистан)

**ТОШОВ ХУРШИД ИЛХОМОВИЧ**

доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии  
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

**ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА**

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии  
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ**

доцент Наманганского государственного университета, доктора  
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

**ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ**

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо  
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ**

докторант кафедры Философии и логики Национального  
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Chief Editor:

### MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor  
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## Deputy Chief Editor:

### YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,  
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## Deputy Chief Editor:

### KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

### MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

### KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,  
Academician of the Academy of  
Arts of Uzbekistan, Doctor of  
Art History, Professor (Uzbekistan)

### MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies  
at Indiana University, Doctor of History (USA)

### DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,  
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

### MAKHMUDOVA GULI TILABOVNA

Head of the Scientific Center "Philosophy"  
at the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, Doctor of  
Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

### ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Vice-Rector for Research and Innovation of the  
International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

### CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature  
of the Yale University, PhD (USA)

### ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU  
named after San Pablo (Spain)

### SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National  
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

### KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,  
Doctor of Historical Sciences (USA)

### GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

### YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

the head of the "Philosophy" department of Andijan  
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

### MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan Institute of Engineering  
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor  
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

### INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

### TOSHOV KHURSHID ILKHOMOVICH

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

### JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

### MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Associate Professor of Namangan State University,  
Doctor of Philosophy (PhD) on  
Sociological Sciences (Uzbekistan)

### SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

### RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI

doctoral student of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Hamid Sulaymon, Erkinov Aftondil Sadirxonovich</b> NAVOIY ASARLARINING MANBA'LARI VA NASHRI HAQIDA.....	7
<b>2. Yusupova Dildora Dilshatovna</b> ISLOM MODERNIZMINING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI.....	27
<b>3. Djurayev Avaz Ahmedjanovich, Zakirov Shakir Mamajanovich</b> AJDODLAR DONOLIGI: ZAMONAVIY DUNYODA KONFUTSIY MEROSI.....	35
<b>4. Lalixon Muxamedjanova</b> GLOBALLASHUV JARAYONIDA ZAMONAVIY AXLOQIY MUAMMOLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	43
<b>5. Ro'ziboyev Dostonbek Dilmurod o'g'li</b> XX ASRNING IKKINCHI YARMIDAGI G'ARB ORIENTALIZMI INQIROZINING FALSAFIY TAHLILI.....	49
<b>6. Xudjaqulova Feruza Raxmatovna</b> JAMIYATNING MAFKURAVIY HAYOTI, UNING TARKIBIY TUZILISHI VA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI.....	58
<b>7. Berdimuratova Lazzat Duysenovna</b> QIZILQUM HUDUDIDAGI GIDRONIMLAR VA ANTROPOGIDRONIMLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI.....	66
<b>8. Normo'minova Nasiba Dilshod qizi</b> BASHORAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY TALQINI.....	76
<b>9. Kobilova Makhfuza Sherali kizi</b> ANALYSIS OF LEXICAL-SYNTACTIC AND SYNTACTIC STYLISTIC MEANS OF LANGUAGE.....	83

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

**МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**


ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Djurayev Avaz Ahmedjanovich**

Angren Universiteti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti

**Zakirov Shakir Mamajanovich**

Angren Universiteti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti

**AJDODLAR DONOLIGI: ZAMONAVIY DUNYODA KONFUTSIY MEROSI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14679600>**ANNOTATSIYA**

Maqola Konfutsiy falsafiy merosini va uning zamonaviy dunyodagi ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda faylasufning asosiy g‘oyalari — uyg‘unlik, axloqiy qadriyatlar, an‘analarga hurmat va o‘zini takomillashtirish tamoyillari ko‘rib chiqiladi. Xususan, konfutsiylik tamoyillarining turli jamiyatlarda axloqiy me‘yorlar, ijtimoiy barqarorlik va boshqaruv tizimlarini shakllantirishdagi ta‘siriga alohida e‘tibor qaratilgan. Mualliflar Konfutsiy donoligini zamonaviy ijtimoiy va madaniy muammolarni hal etishga moslashtirish imkoniyatlarini o‘rganib, uyg‘un jamiyat qurish uchun yangi istiqbollarni taklif etadilar.

**Kalit so‘zlar:** Konfutsiy, konfutsiylik, uyg‘unlik, axloqiy qadriyatlar, jen (insonparvarlik), li (marosim), xiao (ota-onaga hurmat), o‘zini takomillashtirish, an‘analarga hurmat, ijtimoiy barqarorlik.

**Djurayev Avaz Akhmedjanovich**

Angren University, department of “Humanitarian and social sciences”

associate professor

**Zakirov Shakir Mamajanovich**

Angren University, department of “Humanitarian and social sciences”

associate professor

**WISDOM OF ANCESTORS: THE LEGACY OF CONFUCIUS IN THE MODERN WORLD****ABSTRACT**

This article is dedicated to analyzing the philosophical legacy of Confucius and its relevance in the modern world. It examines the key ideas of the thinker, such as harmony, moral values, respect for traditions, and the principle of self-cultivation. Special attention is given to the influence of Confucian principles on the formation of ethical norms, social stability, and governance systems in various societies. The authors explore how Confucius’s wisdom can be adapted to address contemporary social and cultural challenges, offering new perspectives for building a harmonious society.

**Keywords:** Confucius, Confucianism, harmony, moral values, ren (humaneness), li (ritual), xiao (filial piety), self-cultivation, respect for traditions, social stability.

Джураев Аваз Ахмеджанович,  
Доцент кафедры «Гуманитарных и социальных наук» Ангрнского Университета  
Закиров Шакир Мамажанович  
Доцент кафедры «Гуманитарных и социальных наук» Ангрнского Университета

## МУДРОСТЬ ПРЕДКОВ: НАСЛЕДИЕ КОНФУЦИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

### АННОТАЦИЯ

Статья посвящена анализу философского наследия Конфуция и его актуальности в современном мире. Рассматриваются ключевые идеи мыслителя, такие, как гармония, моральные ценности, уважение к традициям и принцип самосовершенствования. Особое внимание уделено влиянию конфуцианских принципов на формирование этических норм, социальной стабильности и системы управления в различных обществах. Авторы исследуют, как мудрость Конфуция может быть адаптирована к решению современных социальных и культурных проблем, предлагая новые перспективы для построения гармоничного общества.

**Ключевые слова:** Конфуций, конфуцианство, гармония, моральные ценности, жэнь (гуманность), ли (ритуал), сяо (сыновья почтительность), самосовершенствование, уважение к традициям, социальная стабильность.

**Kirish.** Konfutsiyini din asoschisi deb hisoblash keng tarqalgan bo‘lsada, uni haqiqiy ma’nodagi din asoschisi deb qabul qilish mumkin emas. Uning nomi Budda, Zardusht kabi payg‘ambarlar nomi bilan bir qatorda tursa ham, diniy e’tiqod masalalari uning dunyoqarashida unchalik ko‘p o‘rin egallamagan edi. U Parmenid va Platon kabi faylasuf ham emas edi. Konfutsiyning nazaridan bilish nazariyasi ham, borliqning masalalari ham chetda qolgan edi. Agarda xitoylik donishmand payg‘ambar ham, metafizik ham bo‘lmasa, unda u kim edi va o‘z davrining ijtimoiy falsafiy taraqqiyotida qanday o‘rin egallagan edi?

Bu savolga javob berish Lao szi haqidagi yoki biror bir qadimiy mutafakkirlar haqidagi savollarga qaraganda javob topish osonroq. Ularning haqiqiy ta’limotlari Konfutsiyinikiga o‘xshagan bir tomonlama asoslanmagan edi, lekin baribir shunga qaramasdan bu inson o‘z yurtining ma’naviyati va ma’naviy qiyofasida juda chuqur iz qoldirdi. Uning ijtimoiy va axloqiy g‘oyalari keyinchalik nafaqat sharqda balki g‘arbda ham ko‘pchilikni o‘ziga jalb qila oldi. Konfutsiy ham xuddi Pifagor yoki Suqrot kabi o‘z ta’limotini manbalarda bayon qilmagan. Lekin do‘stlari va izdoshlari uning qarashlarini “Lun-yuy” – “Fikrlar va suhbatlar” kitobida yozib qoldirishdi. Kitob asosan ma’lum bir sistemasiz to‘plangan va “Ustoz dedilarki ...” so‘zlari bilan boshlanadigan aforizmlardan iborat. Kitobda ba’zan Konfutsiy hayotidan ayrim faktlar keltirilsa, ba’zan ustozni do‘stlari bilan erkin suhbat qurayotgan holatlari keltiriladi.

**Metodlar va o‘rganilganlik darajasi.** Ushbu mavzuni tadqiq qilishda sinxronik va diaxronik, tarix falsafasi, qiyosiy tahlil, mantiqiylik kabi metodlardan foydalanilgan. Mavzuni o‘rganishda G.Skirbekk, N.Gilye, L.Perelomov, V.Ratnikovalarning tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

**Muhokama.** Rivoyatlar Konfutsiyga Xitoydan butun muqaddas yozma manbalar topilgan ekanini ta’kidlasa ham, “Lun-yuy” donishmand va uning o‘quvchilari haqidagi yagona ishonchli manba bo‘lib qolmoqda.

Konfutsiy ismi xitoycha Kun –szi yoki ustoz Kun so‘zining lotincha shaklidir. U Lu viloyatida miloddan avvalgi 551 yilda tavallud topdi. Uning oilasi o‘sha davrda deyarli kambag‘allashib qolgan bo‘lsada, aslida qadimiy asilzodalar avlodiga tegishli edi. Konfutsiyning otasi yosh bolaligidayoq vafot etganligi sababli, u nochorlik va og‘ir mehnat bilan juda erta to‘qnash keladi. “O‘smirlikimda oddiy odamlarning mehnati bilan shug‘ullanganman” – deb eslaydi donishmand [1,18]. U qo‘riqchi ham bo‘lib ishlagan, qo‘y echkilar ham boqqan edi. Aytishlaricha, bolaligidanoq Konfutsiy muqaddas marosimlarni juda yaxshi ko‘rgan va barcha o‘yinlarida u o‘sha muqaddas marosimlarga taqlid qilardi. Bu nihoyatda qiziqarli jihatdir. Chunki bu holat Konfutsiy o‘zining butun ichki ruhiyati bilan doimiy an‘analarga va qat’iy tartibga moyil ekanligini anglatardi. Bu xislat uning hayotida bir umr abadiy muhabbat va aslo o‘zgarmaydigan hissiyot bo‘lib, saqlanib qoldi.

Doimo bosiq va ehtiyotkor Konfutsiy shu joyda deyarli fanatga aylanardi, qat'iy qonunlarga nisbatan bolalarga muhabbat keyinchalik uning butun kelajak taqdirini belgilab beradi. Aynan an'anaviy madaniyat turlarini o'rganishga bo'lgan kuchli ishtiyoq bolada ilmga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Lekin kambag'alligi tufayli u ayonlar tayyorlaydigan birorta ham davlat maktablariga kirolmas edi. Lekin bu bilimga tashna Konfutsiyini to'xtata olmas edi. U besh yoshidan boshlab xususiy darslarni tinglab mustaqil ta'lim olish bilan shug'ullandi. Iyerogliflar sirlarini egallab olgach u qunt bilan qadimiy adabiyotlarni o'rganishga sho'ng'ib ketdi. "Men qadimgi donishmandlarni yaxshi ko'raman va bor kuchimni ularni bilimlarini egallashga sarflayman" deb aytardi Konfutsiy[2,32].

Konfutsiy 19 yoshida uylanadi va keyinchalik o'g'il farzandli bo'ladi. Endi u nafaqat onasi haqida balki oilasi haqida ham qayg'urishi kerak edi. Shuning uchun u davlat xizmatiga kirishga qaror qiladi. Konfutsiyga saroy oziq ovqat ta'minotini nazorat qilish lavozimini topshirishadi va u shijoat bilan ishga kirishib ketadi. Biz xo'jalik va ma'murlik ishlariga boshi bilan sho'ng'ib ketgan Buddani tasavvur qilishimiz qiyin.

Hattoki ba'zida fuqarolik ishlarida ba'zan qatnashib turadigan Suqrot ham ularga loqaydlik bilan qarardi. Lekin Konfutsiy ma'murlik ishida qandaydir bir muqaddas narsani ko'rganday bo'lardi. U mahsulotlarning sifatli bo'lishini nazorat qilar, har bir qisimga e'tibor qaratar, xo'jalik ishlarini yaxshi bilgan odamlardan so'rab-surishtirar, dehqonlar bilan hosildorlikni oshirish yo'llari haqida suhbatlashardi. Oziq - ovqatlar zaxiralari saqlanadigan omborlarda ishlab yurib, Konfutsiy o'z ko'zlari bilan talon-torajnikilar, zo'ravonliklar va mansabini suiiste'mol qilishlar haqidagi mish-mishlar bekor emasligiga amin bo'ldi. Asta sekin unga qadrdon o'lkasi og'ir kasallikka duchor bo'lganligi ayon bo'la boshladi. Feodal tarqoqlik, zo'ravonlik, ochlik, adolatsizlik hamma joyda hukmron edi. Bolaligidan u oddiy odamiylikni tushunib yetgan edi, endi esa amaldorlarning xiyonatlariga savdogarlarning ochko'zligiga, hokimlarning zulmkorligi va maishatparastligi bilan to'qnash keldi. Bularning hammasi Konfutsiy kitoblarda o'qigan, rivoyatlarda eshitgan qadimiy va birlashgan Chjou podsholididagi baxtli hayotdan keskin farq qilardi.

O'zining xizmatda ko'rganlari bilan qadimiy kitoblardagi o'qiganlarini solishtirib shunga amin bo'ldiki, xalq allaqachon haq yo'ldan chiqib ketgan va faqatgina qadimiy turmush tarziga qaytishigina uni qutqarishi mumkin deb hisoblaydi. Miloddan avvalgi 528 yil Konfutsiyning onasi vafot etadi. Udum bo'yicha aza tutish tariqasida xizmatni uch yilga tark etishi kerak edi. O'sha vaqtlarda ko'pchilik bu udumga e'tibor qilmasa-da Konfutsiy unga qattiq amal qilishga qaror qiladi va endi ko'proq bo'sh vaqti bo'lganligi sababli, xitoy xalqi tarixini chuqur o'rganishga kirishadi. Konfutsiyini o'rab turgan hayot qalbida qanchalik nafrat uyg'otgani sayin u qadim va ko'hna tarixni, afsonaviy podsholar davrini mehr bilan ulug'lardi, qadimiy rivoyatlar va qo'shiqlar uning ko'z o'ngida ideal podsholikni gavdalanitardi, unda hukmdor dono va adolatli, qo'shinlar sodiq va jasur, dehqonlar mehnatsevar va halol, ayollar sadoqatli va nozik, zamin hosildor va barakali edi. Bu yo'q bo'lib ketgan olamga sho'ng'igan sayin Konfutsiy o'z qarashlarining to'g'riligiga yanada amin bo'lardi. Odamlar mamlakatdagi alg'ov dalg'ovlikdan azob chekishmoqda, undan qutulish uchun esa, albatta ota-bobolarining an'ana va tartiblariga qaytish kerak deb hisoblaydi. Lekin buni faqat ongli ravishda amalga oshirish mumkin. Har bir odam o'ziga talabchan bo'lishi, o'rnatilgan qoida va tartiblarga amal qilishi lozim. Faqat shundagina jamiyat o'z xastaligidan tuzalishi mumkin. Konfutsiy o'zi ochgan yangilikni o'zida saqlab qolish niyatida emas edi. O'ttiz yoshlar chamasida u o'z qarashlarini keng targ'ib qilishga o'tdi. Uning atrofida uni ustoz deb bilgan yoshlar va tengqurlari yig'ila boshladi. Konfutsiy ular bilan qadimiy qo'lyozmalarni o'qir, matnlarni izohlab berar, udumlarni tushuntirar edi. Ular bilan bir vaqtlar bo'lib o'tgan va yana tiklanishi mumkin bo'lgan oltin asr haqida suhbatlashardi.

O'zining tinglovchilaridan Konfutsiy arzimas haq olar edi. Keyinchalik u boy shogirdlarining mablag'lari hisobiga yashay boshladi. Ular Konfutsiy maktabi uchun bino ham ajratib berishgan edi.

Konfutsiy o'zining yangi ta'limot asoschisi deb atashlariga qat'iy qarshi chiqardi. "Men yangi kitoblar yozmayapman, aksincha qadimiy kitoblarni tahlil qilib tushuntiraman. Men qadimiy qarashlarni sevaman va ularga ishonaman deydi" [3,5].

O‘zining bosh maqsadini “xalqni baxtli” qilishda deb bilgan va faqat shuning uchungina podsholarning bilimlarini o‘rganish zarur deydi. Shunday qilib biz, Konfutsiyning birinchi navbatda hayotiy masalalar qiziqtirganini ko‘ramiz. U borliqning mohiyati, xudolar va abadiylik kabi savollar bilan qiziqmagan. Uni tabiat sirlari va inson mavjudligining muammolari hayajonga solmas edi. Uning bosh maqsadi jamiyatning tinchgina gullab yashnashi yo‘llarini topish edi. U Dao haqida gapirganda hech qanday ilohiylikni ko‘rmas edi. “Inson o‘z yo‘lini tanlaganda, Dao undan uzoq emas, agar insondan yiroqda bo‘lsa, demak u haqiqiy Dao emas” – deydi[4,10]. Dao uning talqinida Lao-szi qarashlaridagi “mavhum va noaniqlik” emas, balki konkret ijtimoiy axloqiy idealdir. Lekin bu Konfutsiy oliy Daoni inkor qiladi degani emas. Faqat u Konfutsiyning ko‘pam qiziqtirmas, qandaydir uzoq abstrakt narsaga o‘xshatardi. “Ustozdan insoniy madaniyat va fuqarolik ishlari haqida fikrlar eshitish mumkin edi, lekin Borliqning mohiyati va samo yo‘li haqida hech narsa aytmaydi”, - deyiladi Lun- yuy kitobida [5,20].

Konfutsiyning bor dindorligi uning o‘z taqdiri va ta’limotining taqdiri osmonga bog‘liq ekanligini tan olish va udumlarga amal qilishida namoyon bo‘lardi. Konfutsiy ellik yoshida “Osmon hukmini angladim” [6,25] –deb ta’kidlasa ham, bu yerda qandaydir yangilik haqida so‘z yuritilmasdi. U duolar o‘qishni shart emas deb hisoblardi, chunki uning tasavvurida osmon qandaydir mohiyatsiz taqdir timsoli edi. “Osmon sukunat saqlaydi”, - derdi u[7,18]. Lekin bu mistiklar aytgan jimjitlik emas edi. Konfutsiyga umuman mistik qarashlar yot edi. Faqat u o‘zi uchun aniq bo‘lgan haqiqatni ya’ni, osmon odamlar hayotida o‘zini hech qanday namoyon qilmayotganligini ta’kidlab o‘tadi. Xuddi shunday fikrni u ruhlar va ilohiy kuchlar haqida ham bildiradi. Abadiylik haqidagi savolga Konfutsiy mujmal javob qaytarardi: “Biz hayot nima ekanligini bilmaymiz-u, o‘lim nima ekanligini bilishimiz mumkinmi?” [8,33]

O‘zining agnostik g‘oyalarini u falsafiy jihatdan asoslab bermaydi, shuning uchun uning agnostitsizmi utilitar, ya’ni kundalik muammolarga tegishli bo‘lmagan barcha narsalarni chetga surib qo‘yuvchi ta’limotdir.

Konfutsiy udumlarga ham sehragarlik ahamiyatini bermasdi. U barcha sir-sinoatlardan, tushunib bo‘lmas narsalardan uzoqroq bo‘lishga intilardi. “Biz tirik insonlarga qanday yordam berishni bilmaymiz, qanday qilib marhumlarga xizmat qilishimiz mumkin?” [1,5] Lekin baribir uning nazarida ulug‘lash birlamchi ahamiyat kasb etardi, Konfutsiy unda umumiy axloqiy-tartibning ajralmas qismini ko‘rardi. U buyuk qurbonlik keltirish marosimining ma’nosini tushuna olmasligini tan olsa ham baribir bu marosimni zarur davlat ishi deb hisoblardi.

Ajdodlarni ulug‘lashni ham u shunday tushunardi. “Agar biz ajdodlar oldidagi burchimizni bajarishda sidqidillik ko‘rsatmasak, xalqning axloqiyligi ham yaxshilanmaydi” –fikrlardi Konfutsiy[4,34]. Bu masalada Konfutsiy o‘ta qat’iy fikrga ega bo‘lib, ozgina chekinishga ham yo‘l qo‘ymasdi. Qadimgilar qurbonlik qilishgan, demak biz ham uning mazmun – mohiyatini surishtirib o‘tirmasdan xuddi shu amalni bajarishimiz lozim deydi. Shogirdlaridan biri unga qo‘ylarni qurbonlik qilishni to‘xtatish kerak chunki bu jarayon oddiy bir rasmiyatchilikka aylanib qoldi, deganda, ustoz “Sen qo‘yga achinsang, men udumlarimga achinaman” deb javob berdi. Bir so‘z bilan aytganda, donishmandning hayot yo‘lini yozib qoldirgan Krill yozganidek: “Konfutsiy dinning ko‘plab muhim masalalarini ochiq qoldiradi. U o‘zining butun diqqat e’tiborini ijtimoiy siyosiy hayotni isloh qilishga qaratadi va bu islohotlar zahirida hech qanday metafizika yo‘q edi”.

Budda ham o‘z navbatida metafizikaning ko‘plab masallariga to‘xtalib o‘tmaydi. Lekin u buni insonning asosiy maqsadi bo‘lmish qutulish yo‘llarini topish uchun qiladi. Konfutsiyga esa metafizika oddiy hayotiy masalalarni ochish uchun kerak edi.

Miloddan avvalgi 522 yilda Konfutsiyning ko‘p yillik orzusi amalga oshdi. U shogirdlari bilan birga Ijouning qadimiy poytaxtini borib ko‘radi. Qadimiy obidalar uni hayratga soladi. U o‘zini donishmandlikning asl bulog‘ida yurgandek his qildi. Qadimiy devorni, rasmlarni diqqat bilan tomosha qilib, yarim o‘chib ketgan rasmlarni zavq bilan o‘qiydi, tunganmas qiziqish bilan qadimgi davrlarga oid barcha narsalarni so‘rab surishtiradi. Konfutsiyning faqat bir narsa ranjitadi, u ham bo‘lsa shunday qadimiy tarixiy obidaga bo‘lgan e’tiborsiz munosabat.

Tezda shahar bo‘ylab yosh ustoz haqidagi gap so‘zlar tarqaladi. Uning shogirdlari soni yanada ko‘paya boradi. Hammani Konfutsiyning qadimiy adabiyotlarni chuqur bilishi va o‘ta keng

eruditsiyasi qoyil qoldirardi. O'sha paytlarda u "Shiszin" kitobini tahrir qilish bilan band edi. Bu kitobda eng yaxshi sherlar va qo'shiqlar to'plangan edi. Ularning ko'pchiligini u yoddan bilardi. Konfutsiy ana shu kitoblardagi fikrlarga insonlar qat'iy amal qilsa, bu ularni va mamlakatni tinchlik va farovonlikka eltadi deb ishongan. Bu fikr donishmandni umrini oxirigacha tark etmadi.

Rivoyat qilishlaricha, Konfutsiy endigina hammaning e'tiborini torta boshlagan bir paytda Laoszi bilan uchrashadi. Keksa faylasuf uning dimog'dorligini va xomxayol orzularini tanqid qiladi, lekin Konfutsiy uni bu ranjitmaydi uni boshqa tarki dunyo qilgan ruhoniylarning kinoyalari ham ranjitmaydi. Ular uni safsatabozlikda ayblashganda u qo'lini yuvib qo'litiqqa urib, ishdan chetga chiqib turishdan boshqa iloj yo'q deb javob beradi. Undan ko'ra o'z bilimlarini xalqqa xizmat qildirish muhimroqdir deydi.

Konfutsiy hayotida Budda yoki Pifagor kabi hurmat ehtiromga sazovor bo'lmagan bo'lsada, u o'zi va o'z bilimiga hurmat bilan qarashlariga erishishga muvaffaq bo'ldi. So'zsiz uning amaldorlar ichida ham raqib maktab vakillari orasida ham dushmanlari bor edi. "Lun-yuy" kitobida biz tez-tez Konfutsiy atrofida bo'lgan bahslar haqida o'qishimiz mumkin.

Ayrimlar ustozni kamsitish maqsadida, uning mag'rurligi, "viqorli turishi va qat'iyligi" ustidan kulmoqchi bo'lishardi. Lekin bu ayblovchilarni haqqoniy deb qabul qilib bo'lmaydi. Konfutsiyga doimo kamtarinlik xos bo'lgan. U hamisha atrofda qilargalarga diqqat e'tiborli, xushkalom bo'lib, oddiy qora yoki sariq rangdagi kiyimda yurardi. Shogirdlari davrasida u ko'ngli ochiq va tabiiy edi, takabburlik va o'zini ustun tutish unga yot edi.

U hech qachon o'zining bilimdonligini ko'z-ko'z qilmas va o'zgalar maslahatiga quloq osar edi. Shogirdlari unga katta ta'sir ko'rsatishardi. Ko'p martalab u o'z fikrini shogirdlari maslahati bilan o'zgartirar, ularning e'tirozlarini eshitar, o'zini oqlashga harakat qilardi. Ular bilan suhbatda Konfutsiy hazillashishni va orzularga berilmaslikni yaxshi ko'rar edi.

Saroyda esa Konfutsiy mutlaq boshqa insonga aylanardi, eshikdan u boshini pastga egib kirar, taxt xonasida nafasini yutib qotib turar, turli rasmiy holatlarda aniq gapirar, qo'llarini yozib odob bilan ta'zim qilardi, xullas qadimiy saroy odob axloqini to'liq bajarardi. Ko'chada ham u o'z harakatlarini chiroyli bo'lishiga e'tibor qaratardi. Uning har bir harakati ma'lum bir qoida va tartiblarga bo'ysunar edi. Aravada u boshini burmay to'g'ri o'tirardi, salomlashishni jiddiy qabul qilardi. Bularning hammasini mag'rurligi yoki takabburligi uchun emas, balki an'analarni tiklash uchun qilardi.

Konfutsiyning turmush tarzi tarki dunyochilikka asoslangan emas edi. Lekin u o'ziga qanoat qilishga chaqirardi. Uning hayoti boshqa amaldor va olimlarning hayotidan aslo farq qilmas edi. Oilaviy hayotda u baxt topolmadi, lekin shogirdlari davrasi uning ahil va sadoqatli oilasiga aylandi. Tinglovchilari odatda o'zidan ko'p yosh bo'lmasa ham u ularni "o'zinning bolalarim" deb chaqirardi.

Konfutsiy shogirdlariga qandaydir oliy va sirli bilimlar berishni va'da qilmas edi. Ularni o'zi cheksiz sodiq bo'lgan oddiy insoniy bilimlarga o'rgatar edi. "Men, - derdi u, - ilmga qattiq intilish yo'lida ovqatlanishni ham unutadigan, tushunish va anglab yetish jarayonidan xursand bo'lib, qayg'ularni ham unutadigan va yaqinlashayotgan qarilikni ham sezmaydigan oddiy insonman". Lekin Konfutsiyning ilmi biz tasavvur qilganimizdan mutlaqo boshqacha edi.

Konfutsiy ta'limotida barcha bilimlar tarixiy merosni o'rganishga qaratilgan edi. "Ustoz to'rt narsaga: yozuvga, o'zini tutish san'atiga, sadoqatga va samimiylikka o'rgatardi" deb yoziladi Lun-yuy kitobida. Bir so'z bilan aytganda u adabiyotlarda ko'rsatilgan tartib qoidalaridan chetga chiqmasdi. Shogirdlarini sinov qilganda ham Konfutsiy ulardan "Shiszin" kitobini va yuksak axloq odob qoidalarini o'rganganligini so'rar edi. Konfutsiy nazarida bilim asoslari shulardangina iborat bo'lgan.

Bir qarashda ayrimlarga bunday o'ta beriluvchanlik g'alati ko'rinishi mumkin. Lekin Konfutsiyning nuqtayi nazarida u juda chuqur ma'no kasb etardi. U umumiy tartibning kafolati edi.

Haqiqiy utopist sifatida u hamma narsa mayda-chuydasigacha tartibga solingan jamiyat haqida orzu qilardi. Uning bu xislati qadimgi dunyoning yana bir utopisti Platon qarashlariga juda o'xshab ketadi. Lekin Platon o'zining "Qonun" kitobida tartib o'rnatish uchun qattiq hokimiyat zarurdir, degan xulosaga kelgan bo'lsa, Konfutsiy maorif va hayotiy yo'l-yo'riqlarni targ'ibot qilish orqali maqsadga erishsa bo'ladi deb hisoblagan.

Konfutsiy inson, insonparvarlik va odob-ahloq qoidalariga amal qilishni o'rganish lozim deydi. Insoniylik va odob –ahloq oilani mustahkamlaydi, bu esa o'z navbatida mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatilishiga olib keladi, hamma narsa o'z o'rnida bo'lgan davlatdagina inson baxtli hayot kechiradi. Mana shu aqida Konfutsiy qarashlarining asosini tashkil qilar edi. Dastlabki Konfutsiychilik fikrlari bayon qilingan “Ulug' ilm” kitobida hokimiyat to'g'risida shunday yoziladi: “Qadimgilar o'zlarining tuganmas imkoniyatlarini namoyon qilish uchun avval davlatni boshqarishgan. Davlatni boshqarishdan oldin, bunday odamlar xonadonlarni boshqargan, xonadonlarni aql bilan boshqarmoqchi bo'lgan odam esa, o'zining ahloqiy kamoloti haqida qayg'urganlar” [8,11].

Konfutsiy fikricha insonparvarlik mavxum shartlilik bulmasdan u insonning xakikiy tabiatini ifodalab, ma'lum ijtimoiy qatlam bilan cheklanmaydi. O'z kalbida insonparvarlikni uyg'otmoqchi bo'lgan xar qanday shaxs bunga erishishi mumkin. Shaxsiy komillikka erishish san'ati boshqalarga ham o'ziga kabi munosabatda bulishda ifodalanadi. Insonparvarlikni moxiyati sodda: uzingga ravo kurmagan narsalarni o'zgalarga xam tilama. Konfutsiy buddizmda keng tarqalgan bu umuminsoniy axloqiy qoidasini hech qanday gayritabiyy manbalar bilan bog'laman. Uning uchun bu qandaydir iloxiy qonun bo'lmay, balki insonning tabiiy xislatlarining namoyon bo'lishi edi xolos. Konfutsiychilar fikri bo'yicha ustoz ta'limotining doktrinasi inson tabiatining asoslariga sodiqlikdir.

Shunday qilib, biz insoniyat tarixida birinchi marta din yoki iloxiylik bilan bog'lanmagan axloq me'yorlarini shakllantirishga bo'lgan urinishlarini ko'ramiz. Aynan shu jixat Konfutsiychilik ta'limotining nozik tomoni xisoblanadi.

Konfutsiylik jamiyatni faqat zo'ravonlik va jazodan qo'rqish xislari orqali qurmoqchi bo'lganlarga qarshi chiqadi va faqat axloqiylik tamoyillarini yoqlab chiqadi. Lekin shu tamoyillarning o'zi uning ta'limotida ma'lum bir ta'sirga ega emas edi. U insonning o'z ta'biatiga kura yovuzlikka nisbatan raxmdillikka moyil ekanligiga ishonar va shuning uchun ham axloqiylikka da'vat etishning o'zi ham yuksak samara berishiga umid qilar edi.

Konfutsiy fikricha «Jen» ham, «Li» ham uzaro chambarchas bog'lik bo'lib, bir birisiz mavjud bo'lishi mumkin emas. «Odam o'z nafsini yengib axloqiylikka qaytgan kundan boshlab dunyoda insoniylik o'rnatiladi – deb xisoblagan edi Konfutsiy. Insoniylik xar bir narsaning asosi.

Yuksak axloqiylik va insoniylikning pirovard maksadi oltin asrni tiklash edi.

«Taypin» deb ataluvchi baxtli davrlarni yaqinlashtirish uchun inson komillikka erishish yo'lida tinmay mexnat qilishi kerak bo'ladi. U o'z nafs va xissiyotlarini jilovlab olishi, tartib va mo'tadillik Chjuan yun tamoyillariga mos ravishda yashashi lozim.

Davlat haqidagi ta'limotida Konfutsiy birinchi o'ringa “ o'z nomiga munosiblik “ qoidasini qo'yadi. Xar bir inson qa'tiy ravishda o'zi egallab turgan mavqeiga mos ravishda uzini tutish lozim deydi. Xukmdor nomigagina davlat boshlig'i bo'lib, aslida esa mayishatparastlik va ko'ngilxushlikdan boshqa narsa bilmasa bundan yomoni yo'q. Faylasufning fikricha, xukdor-xukmdor o'rnida, fuqaro-fuqaro o'rnida, ota-ota o'rnida, o'g'il-o'g'il o'rnida bo'lsagina, mamlakat gullab yashaydi. Davlat xaqiqatdan mustaxkam bo'lishi uchun, unda yetarlicha oziq-ovqat, yetarlicha qo'shin bo'lishi, xalq esa o'z xukmdoriga sodiq bo'lishi lozim.

Bunday jamiyatga namunani qayerdan topish mumkin? Albatta, qadimiy yilnomalardan. Agar odamlar kiyim-kechakda, urf-odatlarda va axloqiylikda qadimgi ajdodlari an'alariga amal qilganlarida edi, maqsadga erishgan bo'lar edi. To'g'ri qadimgilarga o'xshashga xarakat qilish, to'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirishga aylanib qolmasligi lozim. Qarashlar va fikrlar zamon talablariga moslashtirilishi kerak bo'ladi. Lekin eng asosiy moxiyat saqlanib qoladi: jamiyatning munosib a'zosi bo'lishi uchun, har kim o'z vazifasini yaxshi bilishi va o'z ustida tinmay ishlashi darkor bo'ladi.

Konfutsiy ta'limoti insonga sezilarli, oddiy xayotiy baxtni va'da qiladi, lekin evaziga odamlar o'zini mavjud bo'lgan davlat mexanizmining bir qismi ekanligini tan olishi lozim edi. Xukmdor boshqaradi, dehqon yerga ishlov beradi, baliqchi baliq tutadi, musiqachi kuy chaladi, jangchi dushman xujumlarini qaytaradi va xech kim birovni faoliyatiga aralashmaydi. Xukmdorning vazifasi taxlil qilishda. Konfutsiyning qarashlari Platonnikiga judayam o'xshab ketadi. Platon ham xokimiyat tepasida munosib odamlar turishi kerakligini ta'kidlaganidek, Konfutsiy ham xukmdorlar yuksak axloqiylikka ega bulishlari lozim ekanligini ta'kidlaydi. Boshqarish bu tuzatishdir, agar xukmdor o'zi

adolat namunasini ko'rsatsa hech bir fuqaro adolatsizlik qilishga jur'at etmaydi. Agar xukmdor ochko'z bo'lmasa, odamlar o'g'rilik qilishmaydi. Podsholar zolim emas, xalqning otasi bo'lishi lozim. Xukmdor boshqaruvda zulmkorlikka yo'l qo'ymasligi kerak. Xokimiyatga ega bo'lgan inson extiyotkor, adolatparvar, nafslarini jilovlab olgan va xalqni sevuvchi bo'lishi lozim. U xalqni qachon majburiyatlar bajarishga jalb etishni bilishi lozim. Xukmdorlarga bu tarzda yondashuv bilan Konfutsiy siyosiy liberalizm g'oyalariga yaqinlashadi, vaxolanki o'sha davrdagi mutloq xukmdorlikka asoslangan davlatlarga bunday g'oyalar yod edi.

Lekin xukmdorni qanday qilib o'z axloqiy burchini to'g'ri anglash yo'lga yo'naltirish mumkin? Konfutsiyning bu savolga javobi Platon g'oyalariga yaqin. Xukmdorning yonida uning xarakterlarini boshqarib turuvchi, uning vijdoni bo'lgan an'alarining qo'riqchisi hisoblangan matafakkir bo'lishi lozim deydi. Konfutsiy bunday ma'sulli maslaxatchilik ishiga o'zini loyiq xisoblagan. Lekin faylasufning ilm va tarjibasiga bo'ysinadigan xukmdorni topish juda ham murakkab edi. Konfutsiy uzoq vaqt turli xukmdorlar xuzurida o'ziga xomiy topish maqsadida izlanib yuradi. Bir vaqtlar Si ismli xukmdorni kundirishga ham muvofiq bo'ladi va u Konfutsiyni vazir bo'lib tayinlashga va'da beradi. Ammo saroy xizmatkorlari Konfutsiyni o'zlariga raqobatchi deb bilib, uni xukmdorga yomonlab, ezgulikka qaratilgan rejalarini buza boshlashdi. Ular mutafakkirning turli udumlari qattik ishonishining ustidan kula boshlashdi. Olimlarni kulgili laqmalar deb xisoblashib, ularning so'zlarini jiddiy tarzda qabul qilib bo'lmaydi deb uqtirishadi. Olimlar takabbur va mag'rur bo'lib, faqat o'z fikrlariga amal qiladilar, shuning uchun ularni xokimiyatga yaqinlashtirib bo'lmaydi deb xisoblashgan. Bu baxonalar Siga ta'sir qiladi va u Konfutsiy bilan xayirlashadi. Konfutsiyga o'zining judayam keksaligini va olimning maslaxatlariga amal qila olmasligini sabab qilib ko'rsatadi. Bu xolatdan Konfutsiy ruxan cho'kmaydi va o'z urinishlarini yanada qat'iylik bilan davom ettiradi. Va nixoyat izlanishlari muvaffaqiyatli chiqadi. 497-yilda Konfutsiy vatani Luga qaytib keladi. Bu yerda uni tantanali kutib olishadi. Viloyat xukmdori esa zaiflashib qolgan xokimiyatini mustaxkamlash maqsadida Konfutsiyni Chjun-du shaxriga gubernator etib tayinlaydi. Faylasuf endi o'z goyalarini hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu joyda Konfutsiyga amoldorlik lavozimida ishlab to'plagan tajribasi qo'l keladi. U dehqonchilikni tartibga soladi, ekinzorlarni kengaytiradi, boylardan oilaviy qabristonlar uchun saqlanadigan yerlarni tortib oladi, nopok yo'l bilan ortirilgan boyliklarini musodara qiladi. Lekin tezda Konfutsiyga qarshi oppozitsiya bosh ko'tarib chiqadi va ularni yengish oson kechmadi. Gubernatorlikning birinchi kunlaridanoq u o'lim jazosini bekor qilish tamoyilidan chekinishga majbur bo'ldi va o'z siyosiy raqibini o'limga maxkum qildi. Lekin qatl yordam bermadi, unga qarshi kuchlar kurash boshladi. Konfutsiyning obro'si tushib ketmoqda edi. Saroy a'yonlari unga qarshi nizolar chiqara boshlashdi. Xokim uning kursatmalaridan og'riqsina boshladi. Konfutsiy esa achchik xaqiqatni aytishni o'z burchi deb bilar edi. Oxir oqibat Konfutsiyga Luni tark etishdan boshqa iloji qolmadi.

Shunday qilib, Konfutsiychilikka xos bo'lgan ideal, nafaqat ekzotik falsafadir. Bu inson hayotining asl mohiyati va maqsadi mana shu mavjud bo'lgan borliqda ekanligi yuksak axloqiylik esa diniy aqidalar yordamsiz ham o'rnatilishi mumkinligi, inson inson ruxining barcha eng oliy talablarini ham uning ongidan chiqarib tashlashning imkoniyatlari borligi, inson xayotidagi azob – uqubat, ziddiyat va fojyaviyliklar ijtimoiy uyg'unlikka asoslangan jamiyat qurish orqali bartaraf etilishi lozimligini asoslab beruvchi mukammal ta'limot yaratishga qaratilgan ilk urinishi edi. Lekin bir narsani dadil aytsa bo'ladiki, bu g'oya faqat qadimgi Xitoy faylasuflari tomonidan yaratilgan kashfiyot bo'lmasdan, balki butun insoniyat ko'p ming yillik tarixi davomida intilib kelgan orzu-umidlari va pirovard maqsadlarining ifodasi edi.

Qadimgi Xitoydagi ijtimoiy falsafiy fikrlar hamisha "o'rtamiyonlikka" yo'naltirilganligiga qaramasdan, aynan shu mamlakatda, "inson" bu dunyoda qanday hayot kechirishi kerak? -degan muammoning ikkita mutloq qarama-qarshi yechimlari olg'a surildi. Bir tomondan u, Lao-szi timsolida butun dunyoga Buyuk borliqning sir-sinoatlari haqida jar solib, xayotni-tabi'at va olamning tabiiy qonuniyatlariga aralashmasdan, tomoshabin sifatida chorlasa, boshqa tomondan esa Konfutsiy timsolida-eng oliy qadriyat deb yerdagi hayotni e'lon qiladi va insoniyat kelajagi va farovonligini qat'iy o'rnatilgan ijtimoiy tartiblarda deb hisoblaydi.

Konfutsiy donoligi zamonaviy ijtimoiy va madaniy muammolarni hal qilishda uning asosiy tamoyillarini — anʼanalarga hurmat, uygʻunlik va axloqiy kamolotga intilishni joriy etish orqali moslashtirilishi mumkin. Konfutsiy taʼlimoti axloq va masʼuliyatning muhimligini taʼkidlab, jamiyatda ijtimoiy aloqalar va ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Uning «jen» (insonparvarlik) konsepsiyasi madaniy va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yumshatib, hamdardlik va birdamlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. «Li» (marosim) tamoyili esa barqaror xulq-atvor qoidalarini shakllantirish va jamoat tartibini mustahkamlash uchun qoʻllanilishi mumkin. Shunday qilib, Konfutsiy gʻoyalari hurmat, hamkorlik va anʼanalarga bilan zamonaviy qadriyatlar oʻrtasidagi muvozanatga asoslangan uygʻun jamiyat qurish uchun yangi istiqbollarni taklif etadi.

### Foydalangan adabiyotlar:

---

1. Дао и даосизм в Китае. -М., 1982
2. Древнекитайская философия. Т. 1- 2. М., 1972
3. Жураева С. Хакикат манзаралари. “Янги аср авлоди”.
4. Конфуций. Лунь Юй. Перевод Ю. Кривцова.- В кн. Древнекитайская философия . Собрание текстов. М., 1972
5. Конфуций . Изречения – М.: МГУ, 1994
6. Китайские социальне утопии . М.: Главная редакция восточной литературы издательства “Наука”, 1987
7. Скирбекк Г., Гилье, Н. Фалсафа тарихи: Олий укув юрт. учун укув кулл./ Рус тилидан тарж.: В. Кузнецов. – Т.: “ Шарк”, 2002.
8. Переломов Л.С. Конфуцианство и легизм в политической истории Китая., 1981.
9. Философия: Учебник для вузов / Под ред, проф. В.Н. Лавриненко, проф. В.П. Ратникова.- М.: ЮНИТИ, 2000

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 5, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 5, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 5, ISSUE 3

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000